



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamov Amriddin Xamdam o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Тарават Абдул Салам	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Икрамова Нодира Бурхон кизи	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA YANGI KONSEPTUAL VA USLUBIY YECHIMLAR: SIRKULYAR IQTISODIYOT TAJRIBASI.....	180
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
BANKLARDA RISKLARNI BOSHQARISH, DAROMAD VA NATIJADORLIKNI OSHIRISH	185
Jo'rayev Bekzod Bahodir o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI MENEJMENTINI HUDUDIY KLASSTERLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH MODEL: TASHKILIY-BOSHQARUV MEKANIZMLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	192
Rajapova Guldona Usman qizi	
FERMER XO'JALIKLARIDA MOLIVAVIY NATIJALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH: FOYDA SIFATI VA BARQARORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI	198
Rashidov Baxadir Yusupovich	
HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSIALARNING ROLI.....	203
Sapayeva Fazilat Norbayevna	



ERKIN IQTISODIY ZONALARDA EKO-SANOAT PARKLARINI TASHKIL ETISH VA EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI BAHOLASH USULLARI	207
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHNING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI	212
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
BARQAROR RIVOJLANISH (ESG) PRINSIPLARINING KOMPANIYA BRENDI QIYMATI VA JOZIBADORLIGIGA TA'SIRI	217
Dilfuza Matisakova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH	224
Raximova Lolaxon Avazovna	
MEHNAT INTIZOMINING KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	228
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
MINTAQA IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA TIBBIY TURIZM XIZMATLARINING EKONOMETRIK BAHOLANISHI.....	237
Yusupova Mexribon Uktamovna	
KICHIK SANOAT ZONALARIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHNING RAQAMLI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH.....	245
Jo'rayev Po'latjon Komiljon o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARI SOHASIDA KICHIK BIZNES RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	251
Madaminova Feruza Tursunboy qizi	
YASHIL INVESTITSIYALARNING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	259
Raximova Shaxnoza Xamzayevna	



YASHIL INVESTITSİYALARNING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Raximova Shaxnoza Xamzayevna
Osiyo Xalqaro Universiteti
Iqtisodiyot kafedrası assistent-o'qituvchisi
ORCID: 0009-0003-6933-9053

Annotatsiya. Tadqiqotda yashil investitsiyalarning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi yashil investitsiya oqimlarining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlash hamda ularni faollashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. O'zbekiston misolida yashil obligatsiyalar, ekologik jihatdan barqaror sanoat va energetika loyihalariga yo'naltirilgan mablag'lar hamda mintaqalar kesimidagi investitsiyalar taqsimoti statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil investitsiyalarning hududlar yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) o'sish sur'atlari, yangi ish o'rinlari yaratilishi va ekologik holatning yaxshilanishiga ijobiy ta'siri aniqlangan. Shu bilan birga, ularning mintaqalar bo'yicha taqsimotini yanada muvozanatlashtirish imkoniyatlari mavjudligi asoslangan. Muallif tomonidan yashil investitsiyalarni mintaqalar kesimida muvozanatli jalb etishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil investitsiyalar, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish, barqaror rivojlanish, yashil obligatsiyalar, yashil iqtisodiyot, ekologik infratuzilma, investitsiya siyosati, hududiy tafovutlar.

Аннотация. В исследовании проанализированы роль и значение зелёных инвестиций в региональном экономическом развитии. Цель исследования заключается в определении влияния потоков зелёных инвестиций на территориальные социально-экономические показатели и разработке научно обоснованных предложений по их активизации. На примере Узбекистана на основе статистических данных исследованы зелёные облигации, средства, направленные на реализацию экологически устойчивых промышленных и энергетических проектов, а также распределение инвестиций в региональном разрезе. Результаты исследования показывают положительное влияние зелёных инвестиций на темпы роста валового регионального продукта (ВРП), создание новых рабочих мест и улучшение экологической ситуации. Вместе с тем обоснована возможность дальнейшего совершенствования их сбалансированного распределения между регионами. Автором разработаны предложения по совершенствованию институциональных механизмов сбалансированного привлечения зелёных инвестиций в региональном разрезе.

Ключевые слова: зелёные инвестиции, региональное экономическое развитие, устойчивое развитие, зелёные облигации, зелёная экономика, экологическая инфраструктура, инвестиционная политика, региональные различия.

Abstract. The study analyzes the role and significance of green investment in regional economic development. The purpose of the research is to determine the impact of green investment flows on regional socio-economic indicators and to develop scientifically grounded proposals for their promotion. Using Uzbekistan as a case study, the research examines green bonds, funds allocated to environmentally sustainable industrial and energy projects, and the regional distribution of investment based on statistical data. The findings demonstrate the positive impact of green investment on gross regional product (GRP) growth, job creation, and environmental improvement. At the same time, the study identifies opportunities to further improve the balanced distribution of green investment across regions. The author develops proposals for improving institutional mechanisms aimed at ensuring the balanced attraction of green investment across regions.

Keywords: green investment, regional economic development, sustainable development, green bonds, green economy, environmental infrastructure, investment policy, regional disparities.



KIRISH

Global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va atrof-muhitga tushayotgan antropogen yuk XXI asr iqtisodiy siyosatining markaziy masalalaridan biriga aylandi. Bunday sharoitda iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirish zarurati "yashil investitsiyalar" tushunchasining ilmiy-amaliy ahamiyatini sezilarli darajada oshirmoqda. Yashil investitsiyalar deganda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, suv va energiya tejamkor texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash tizimlari, ekologik toza transport hamda yashil infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan kapital mablag'lar tushuniladi.

Mintaqaviy iqtisodiyot nuqtai nazaridan yashil investitsiyalarning ahamiyati yanada dolzarb tus oladi, chunki mamlakat ichidagi hududlar tabiiy-resurs salohiyati, ekologik yuk darajasi va investitsion jozibadorligi bo'yicha bir-biridan sezilarli farq qiladi. O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, jumladan, "yashil" iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish konsepsiyasi doirasida hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda yashil moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish alohida o'rin tutmoqda.

Tadqiqotning maqsadi — yashil investitsiyalarning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta'sir kanallarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, O'zbekiston hududlari misolida yashil investitsiya oqimlarining hozirgi holatini baholash hamda ularni mintaqalar kesimida muvozanatli jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdir. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: yashil investitsiyalarning nazariy-uslubiy asoslarini yoritish; xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ushbu sohadagi ishlarini tahlil qilish; O'zbekiston misolida yashil investitsiyalarning hududiy taqsimotini statistik ma'lumotlar asosida baholash hamda amaliy tavsiyalar shakllantirish. Tadqiqotning obyekti — O'zbekiston hududlaridagi investitsiya jarayonlari, predmeti esa yashil investitsiyalar bilan mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik masalasi jahon iqtisodiy fanida uzoq tarixga ega. M. Porter va C. van der Linde tomonidan ilgari surilgan "Porter gipotezasi" ekologik jihatdan qat'iyroq tartibga solish korxonalarni innovatsiyaga undab, uzoq muddatli istiqbolda ularning raqobatbardoshligini oshirishi mumkinligini nazariy jihatdan asoslab bergan. Ushbu g'oya keyinchalik yashil investitsiyalarning nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorlik manbai sifatidagi rolini o'rganishga turtki bo'ldi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) "yashil o'sish" konsepsiyasini rivojlantirib, tabiiy kapitaldan foydalanishni cheklamasdan, aksincha, uni samarali boshqarish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Xalqaro qayta tiklanuvchi energetika agentligi (IRENA) hisobotlarida esa yashil moliyalashtirish hajmining o'sishi bilan mintaqalarda yangi ish o'rinlari yaratilishi va energetika xavfsizligining mustahkamlanishi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi statistik jihatdan tasdiqlangan.

Mahalliy iqtisodchilar orasida ham yashil investitsiyalar va mintaqaviy rivojlanish mavzusi faol o'rganilmoqda. Xususan, O'zbekiston hududlari misolida olib borilgan tadqiqotlarda investitsiyalar hajmi bilan yalpi hududiy mahsulot o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligi, investitsiyalarning Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Navoiy viloyati kabi bir qator sanoat markazlarida yuqori darajada jamlangani hamda hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni yanada muvozanatlashtirish imkoniyatlari mavjudligi ko'rsatib o'tilgan. Bu esa investitsiya siyosatini, jumladan, yashil investitsiyalarni mintaqaviy rivojlanish strategiyalari bilan uzviy bog'liq holda olib borish maqsadga muvofiqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasidagi boshqa tadqiqotlarda ham raqamli iqtisodiyot va yashil energetika sohalarida mamlakat investitsion salohiyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan bo'lib, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda yashil obligatsiyalar, yashil kreditlash va ekologik sug'urtalash kabi moliyaviy vositalarning rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda mintaqaviy investitsiya imkoniyatlarini kengaytirishdagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil investitsiyalar mavzusi bo'yicha nazariy baza yetarlicha shakllangan bo'lib, ularning aynan mintaqaviy kesimdagi samaradorligini o'rganish bo'yicha qo'shimcha empirik tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyatlari mavjud. Mazkur tadqiqot ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Birinchidan, mavzuga oid xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish orqali yashil investitsiyalarning nazariy-uslubiy asoslari umimlashtirildi. Ikkinchidan, qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston hududlarining investitsion faolligi o'zaro solishtirildi, bunda mintaqalarning asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, xorijiy investitsiyalar ulushi va yashil loyihalar soni asosiy ko'rsatkichlar sifatida qabul qilindi.



Uchinchidan, statistik tahlil usuli qo'llanildi: Milliy statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bankning ochiq statistik ma'lumotlari asosida yashil investitsiya oqimlari, YaIM o'sish sur'atlari va xorijiy investitsiyalar dinamikasi tahlil etildi. To'rtinchidan, mantiqiy umumlantirish va induktiv xulosa chiqarish usullaridan foydalanib, olingan statistik natijalar asosida amaliy tavsiyalar shakllantirildi. Tadqiqotning axborot bazasini rasmiy statistik hisobotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar (jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023 — 2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-son¹ qarori) va xalqaro tashkilotlarning tegishli tahliliy materiallari tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni so'nggi besh-olti yil ichida institutsional jihatdan ancha mustahkamlandi. 2023-yil oktabr oyida mamlakat tarixida ilk bor milliy valyutada yashil suveren xalqaro obligatsiyalar chiqarildi — 4,25 trillion so'm hajmidagi mazkur qimmatli qog'ozlar MDH davlatlari orasida shu turdagi birinchi bitim bo'ldi, unga qo'shimcha ravishda 660 million AQSH dollari miqdoridagi xalqaro obligatsiyalar London fond birjasida joylashtirildi. Ushbu mablag'lar suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, temir yo'l va metro transportini rivojlantirish, sanitariya-tozalash tizimlarini yaxshilash hamda shamol eroziyasi va suv omborlarining qumga botishiga qarshi ihotada daraxtzorlarini barpo etish kabi loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, loyihalarni tanlash jarayoniga Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi ham jalb etilgan ularning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlagan.

Umumiy investitsion faollik dinamikasi ham ijobiy tendensiyaning ko'rsatmoqda: 2024-yilda mamlakat iqtisodiyotiga jami 34,8 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilib, bu ko'rsatkich oldingi yilga nisbatan 1,6 baravar ortgan, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof kirim hajmi 2,8 milliard dollarni tashkil etib, 32 foizga o'sgan. 2025-yilga kelib esa 42,1 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish rejalashtirilgan bo'lib, shundan 36,8 milliard dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga to'g'ri keladi. Milliy statistika qo'mitasining so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar–dekabr oylarida YaIMning real o'sish sur'ati 7,7 foizni, sanoat tarmog'ining o'sishi esa 6,8 foizni tashkil etdi — bu esa investitsion faollikning umumiy makroiqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sirini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, investitsiyalarning, jumladan, yashil yo'naltirilgan mablag'larning hududlar kesimidagi taqsimotini yanada muvozanatlashtirish imkoniyatlari mavjud. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo'yicha yetakchi o'rinlarni Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Navoiy viloyati egallab turibdi. Ushbu hududlarda sanoat salohiyatining yuqoriligi va infratuzilmaning nisbatan rivojlanganligi investorlar uchun qulay muhit yaratmoqda. Shu bilan birga, boshqa qator hududlarda investitsiya oqimlarini yanada faollashtirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu mintaqalar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni, jumladan, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va tadbirkorlik faolligi darajasini yanada muvozanatlashtirishga xizmat qiladi. Investitsiyalar hajmi bilan yalpi hududiy mahsulot o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligi statistik jihatdan tasdiqlangan bo'lsa-da, aynan yashil yo'naltirilgan loyihalarning hududlar bo'yicha ulushini alohida statistik hisobga olish tahlil imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Bu esa milliy statistika tizimida yashil investitsiyalarni alohida indikator sifatida yuritish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Shuningdek, "yashil" iqtisodiyotga o'tish davlat siyosati darajasida ham mustahkamlangan: qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda shaharlardagi yashil maydonlarni kengaytirish, o'rmon fondi zaxiralarini oshirish va energiya samaradorligini joriy etish bo'yicha aniq miqdoriy maqsadlar belgilangan. Bunday chora-tadbirlarning mintaqalar kesimida izchil amalga oshirilishi nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy samarani — yangi ish o'rinlari, kichik va o'rta biznes uchun yangi bozor segmentlari hamda hududiy investitsion jozibadorlikning oshishini ta'minlashi mumkin. Tahlil natijalari yashil investitsiyalarning uch asosiy kanal orqali mintaqaviy rivojlanishga ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi: birinchidan, to'g'ridan-to'g'ri kapital qo'yilmalar orqali ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash; ikkinchidan, energiya va resurs tejamkorligi hisobiga korxonalar xarajatlarini kamaytirish; uchinchidan, ekologik holatning yaxshilanishi orqali hududning investitsion va turistik jozibadorligini oshirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari yashil investitsiyalarning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda nafaqat ekologik, balki strategik iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. O'zbekistonning yashil suveren obligatsiyalar chiqarishi, xorijiy investitsiyalar hajmining barqaror o'sishi va milliy darajadagi yashil siyosat hujjatlarining qabul qilinishi ijobiy tendensiya sifatida baholanadi. Shu bilan birga, investitsiya oqimlarining yetakchi hududlarda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023 — 2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-6329448>



yuqori darajada jamlangani boshqa mintaqalarning investitsion imkoniyatlarini yanada kengaytirish va hududlararo iqtisodiy rivojlanishni muvozanatlashtirish muhimligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi: birinchidan, mintaqaviy yashil investitsiya fondlarini tashkil etish va ularga soliq hamda kredit imtiyozlari berish orqali investitsion salohiyatini yanada oshirish imkoniyati mavjud hududlarni rag'batlantirish maqsadga muvofiq; ikkinchidan, yashil obligatsiyalar amaliyotini kengaytirib, hududiy hokimiyat organlariga mahalliy yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun subfederal darajadagi qimmatli qog'ozlar chiqarish imkoniyatini yaratish; uchinchidan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali xususiy investorlarni investitsion salohiyatini yanada rivojlantirish imkoniyati mavjud hududlardagi yashil energetika va suv xo'jaligi loyihalariga jalb etish; to'rtinchidan, Milliy statistika qo'mitasi tizimida yashil investitsiyalarni alohida statistik indikator sifatida yuritishni joriy etib, mintaqalar kesimidagi monitoringni yo'lga qo'yish; beshinchidan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlari uchun yashil loyihalarni ishlab chiqish va moliyalashtirish bo'yicha malaka oshirish dasturlarini tashkil etish. Ushbu chora-tadbirlarning kompleks tarzda amalga oshirilishi yashil investitsiyalarning mintaqalar kesimida muvozanatli taqsimlanishini, natijada esa mamlakat bo'ylab barqaror va inkluziv iqtisodiy rivojlanishga erishishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter M. E., Van der Linde C. Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship // Journal of Economic Perspectives. — 1995. — Vol. 9, No. 4. — P. 97–118.
2. OECD. Towards Green Growth. — Paris: OECD Publishing, 2011.
3. IRENA. Global Landscape of Renewable Energy Finance. — Abu Dhabi: International Renewable Energy Agency, 2023.
4. World Bank. State and Trends of Carbon Pricing. — Washington, DC: World Bank Group, 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023 — 2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-son qarori [Elektron resurs]. — <https://lex.uz/uz/docs/-6329448>
6. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal. O'zbekiston Respublikasi ilk marta milliy valyutada "yashil" maqomiga ega suveren xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi [Elektron resurs]. — 2023. — Gov.uz
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: 2025-yil yanvar–dekabr: press-reliz [Elektron resurs]. — 2026. — Stat.uz
8. Mintaqaviy tafovutlar va iqtisodiy o'sish: O'zbekiston hududlari misolida investitsiyalarning ta'siri tahlili // Qo'qon davlat pedagogika instituti xabarnomasi. — DOI: 10.54613/ku.v15i.1196
9. Abdurahmonov Q., Abdullayeva D. O'zbekiston Respublikasining investitsion salohiyatini oshirish yo'nalishlari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. — 2023.
10. Investitsion banking departamenti. Kapital bozori tahlili: sentabr, 2025 [Elektron resurs]. — 2025. — SQB.uz
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekistonning to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei va tashqi qarzi bo'yicha hisobot: 2024-yil yakuni [Elektron resurs]. — 2025. — CBU.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
